



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТНИК НУУЗ

АКТА NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2024
1/8/1**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m.f.d., professor.

SHIRINOVA R.X. – fil.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Ashirov A.A. – t.f.d., prof.

Balliyeva R. – t.f.d., prof.

Malikov A.M. – t.f.d., prof.

Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.

Yunusova X.E. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Mo'minov A.G. – s.f.d., prof.

Abdulayeva N.B. – f.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.

Utamuradov A. – f.f.n., prof.

Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sa'dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2024

MUNDARIJA

Tarix

Abdug'aniyeva G. Professional kadrlar – milliy armiya asosi (1991-2005 yillar misolida).....	4
Ayubova Sh. Samarqandning Registon ansamblidagi bezaklarning ramziy ma'nolari	8
Kattayeva G, Xamidov O. Oks sivilizatsiyasi bo'yicha 2023-yilda nashr etilgan yangi tadqiqotlar: 3.2.-qism ("Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo'yicha 12-xalqaro konferensiya materiallari" to'plami misolida)	12
Matba'abov B, Rahimov K. Новый памятник эпохи бронзы Алибайтепа (Юра Узбекистана)	15
Pardayev J. Ikkinchi jahon urushi davrida g'allaorolliklarning front ortidagi fidokorona mehnati	19
Rahmonova P. Imomqulixon hokimiyatining o'rnatilishida firdavsmonand Samarqandning tutgan o'rni	22
To'xtasinov M. Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va xo'jalik hayoti	25
Egamberdiyev A. Abdulahad To'raning Buxoro amirligi taxt vorisi etib tayinlanishi tarixi	28

Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik

Abdisheripova Sh. Kompetentsiyaviy yondashuv asosida tarbiya darslarining tashkil qilinishi(5-6 sinflar asosida)	32
Abduvoitov S. Turkiya tashqi siyosati shakllanishining zamonaviy yo'nalishlari	34
Abdug'aniyeva D. Destruktiv emotsional holatlar – psixologik fenomen sifatida.....	37
Abdullayeva O. Texnika oliy ta'lim muassasasi talabalarini xorijiy tilni bilish kompetentligini darsdan tashqari mustaqil ta'lim sharoitida rivojlantirish texnologiyasi	40
Abdullayeva R. Hayot sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	44
Abdumalikov A. Jamiyatda uzliksiz ta'lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli	47
Abdurazakova Sh. New communicative methods in military english teaching	50
Abdurazaqov F. O'quvchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyati shakllantirishning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslari.....	52
Aytbayev M. Sharq va g'arb olimlari tomonidan Mahmud Zamaxshariyning falsafiy-axloqiy merosining tadqiq etilishi.....	55
Aliyeva M. Qobiliyatlarni aniqlash, rivojlantirish va ularning darajalari	58
Alkarova F. O'quvchilarda kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishda "Texnologiya" fanining roli	61
Amanova G. Talabalarining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish shartlari va omillari	65
Aminova N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	68
Arzimatova I. Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishda zamonaviy boshqaruv kadrlarini tayyorlash masalasi	71
Ahrorova Sh. Ijtimoiy ma'naviy muhitda qadriyatli yondashuv	74
Baratova D. Noto'liq oilada tarbiyalanayotgan bolalarning oila va oilaviy munosabatlar to'g'risidagi tasavvurlari.....	77
Baratova K. Boshlang'ich sinfda o'qituvchining shakllanishi va metodikasi.....	80
Bozorov V. Ta'limni transformatsiyalash sharoitida maktab o'qituvchilarining pedagogik malakasini oshirishning zamonaviy metodlari	83
Boymatov B. Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitish texnologiyalari	86
Davronova F. Zamonaviy jamiyatda sektorlararo ijtimoiy hamkorlik gender madaniyatini shakllantirishning muhim omili sifatida.....	89
Jumaqulova S. O'qituvchi pedagogik faoliyat motivlari va uning muhim jihatlari	92
Jo'rayev V. Technology for preparing students for management activities	95
Zaynobidinova N. Jamiyat barqaror rivojlanishi haqidagi falsafiy qarashlar evolyutsiyasi.....	98
Zokirova G. Strategies and approaches of teaching phraseological competence to young learners.	101
Ibodova M. Akademik litseylarda biologiya fanini integrativ yondashuv asosida o'qitishning didaktik modeli	104
Ibragimov B. Beruniy va ibn Sino yozishmalarining o'rganilishiga oid mulohazalar	106
Kamolova U. Ruboiylarning vazniy tahlili orqali o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish masalasi	109
Kasimov A. Mamlakatimizda mahalliy budjetlar ijrosi ustidan deputalik nazoratini amalga oshirishning istiqbollari	112
Kasimova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni gender munosabatlarini shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari	115
Kenjayev J. Inson huquqlarini ta'minlashda nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy-siyosiy jihatlari.....	118
Kurbanova M. Art-terapiyaning pedagogik va psixologik aspektlari: yo'nalishlari, mazmuni, usullari	121
Qunishev U. Nemis klassik falsafasi axloqiy-estetik qarashlarining jamiyatga transformatsiyasi	124
Mannonov E. Demokratik islohotlar sharoitida fuqarolarda siyosiy madaniyatni shakllantirish zaruriyati	127
Mansurova N. Xalqaro siyosatda gender tenglik	130
Miliyeva M. Talabalarining chet tilini o'rganishining psixologik jihatdan o'ziga xosligi	133
Muxammadiyeva D. Fizika darslarida namoyish tajribalari yordamida o'quvchilarning kasbiy qiziqishini oshirish	136
Наркулова И, Наркулов А. Анализ эффективности использования искусственного интеллекта для повышения качества образования	139
Nurboboyev Sh. Ta'lim muassasalari faoliyatini samarali boshqarishning zamonaviy psixologik jihatlari	142
Nurimbetov R. O'zbekiston – SHHT: amaliy hamkorlik yo'lidagi tashabbuslar	145
Rasulova G. Ona tili ta'lim mazmunida savol, topshiriq va mashqlar orqali o'qitish metodikasi	148
Rahimova M. Psychological factors of family adjustment of girls starting a family of different ages	151
Rahmonova D. Jismoniy tarbiya darslarida oliy ta'lim muassasalari talabalarini jismoniy sifatlarini rivojlantirish	154
Rahmonov A. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy prinsiplari.....	157
Rahmonova F. Gender tenglikni ta'minlash – xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishning ijtimoiy-huquqiy mexnizmi sifatida.....	159
Rashidova O. Oliy ta'lim muassasalarida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'limini integratsion yondashuv asosida tashkil qilish	162
Rustambekova N. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	165
Saydaliyeva D. Bugungi kunda chet tillarini o'qitishga berilayotgan e'tibor va chet tillari o'rganishning ahamiyati.....	168
Samanova Sh. Insonning tabiatdan begonalashuvini oldini olishda ekologik madaniyatning o'rni.....	171
Sadullayev I. Elektron ta'lim uchun o'quv kursi kontentlarini yaratishning asosiy prinsiplari va xususiyatlari	174
Tagieva G. Aholining farovon hayotini ta'minlashda ijtimoiy ta'minotning o'rni.....	177
Toxtiyarova Sh. Inklyuziv ta'lim sharoitida turli darajadagi intellektual qiyinchiliklari bo'lgan bolalar uchun korreksion-rivojlantiruvchi tizimni shakllantirish muammolari	180
Tulaboyeva G. Bugungi kunda chet tili mutaxassislarining kasbiy faoliyatga tayyorlashning mexanizmi.....	183

Turdiyev B. Uchinchi renessans jamiyat ideosferasining ustuvor g'oyasi sifatida	186
Tursunov A. Yoshlar ekologik va estetik ongini shakllantirishdagi yondoshuvlar	189
Tursunova M. Developing pragmatic competence of uzbek esl learners through postmethod pedagogy	191
Ulug'bekova G. Anatomiya o'qitishning zamonaviy ta'lim standartlari va tibbiyot oliy o'quv yurtlari talablariga javob beradigan samarali metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish	195
Fayziyeva Z. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirish	198
Xakimov C. Научные теории о понятии акцентуации характера.....	201
Xamraev S. Mamlakat rivojining yangi bosqichida mulkdorlik va tadbirkorlik sohasidagi islohotlarning konseptual tamoyillari	204
Xasanova O. Xatolarni to'g'rilash usullari va ularning o'ziga xos jihatlari	207
Xodjayeva N. Talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish usullari	210
Xudoyberdiyev E. Tabiatdagi fundamental ta'sirlashuvlarni o'rganish asosida talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish ...	213
Xudoyorova M. Turli yosh davrlarining psixologik xususiyatlari hamda baxtlilik darajalarining ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishda asosiy omil sifatida o'rganilishi.....	217
Xo'janova T. Qadimgi davrlarda axborot urushlarida psixologik ta'sir usullari	219
Shirinov O. Oila-mahalla-maktab hamkorligining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati	222
Shixova I. O'smirlarda tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik omillar	225
Shodmonqulova M. Yangi davr liberal g'oyalarning o'ziga xos xususiyatlari	228
Shodmonova Sh. Ijtimoiy konsensus tushunchasining mazmun-mohiyati, konseptual asoslari	230
Elmurodov U. Oliy ta'lim tizimida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning psixologik jihatlari	233
Якубов О. Разработка педагогической модели обучения персидскому языку для неспециалистов.....	236
Yalg'osheva M. Individual yondashuv asosida til ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	239
Filologiya	
Abdullayeva U. Ijroviy lirikaning badiiylilik xususiyati	242
Abdusalomova K. Matnazar Abdulhakim she'riyatida mumtoz she'riy san'atlarning qo'llanilishi	244
Abdusattorova B. "Boburnoma" asarining o'zbek tilidan ingliz tiliga turli shaxslar talqinida qilingan tarjimalari asosida kayfiyat konsepti verbalizatorlarini o'rganish.....	247
Aliddinova M. Концепция автора в современной религиозно-нравственной прозе: сравнительный анализ узбекской и русской литературы (на примере О. Николаевой, А. Варламова, Ю. Вознесенской).....	250
Andakulova N. Structuralism and post-structuralism in 20th-century english literature.....	254
Aslanova A. Brendingni targ'ib qilishda digital pr vositalari	257
Babajanova Y. Amerika hikoyalariining bevosita va bilvosita tarjima qilinishi.....	261
Berdiyeva D. Hozirgi o'zbek she'riyatida raqib obrazi (H. Xudoyberdiyeva she'rlari misolida)	264
Bumatova A. Alisher Navoi's works in english.....	267
G'afurov N. Alisher Navoiy fardlarida e'tiqodiy tartib.....	270
Dustmurodov M. Turk xoqonligi harbiy tuzumining O'rxun-Yenisey bitiktoshlarida aks etishi	273
Есемуратова Н. Способы использования видоизмененных пословиц и поговорок в поэзии Ибрагима Юсупова	276
Ziyodullayeva X. Yangi media sharoitida fake newsning auditoriasi	279
Isamidinova G. Yolg'on muloqotning turli diskurslardagi paralingvistik tahlili	282
Iskandarov B. Frazeologik birliklarning tarjimada berilishining o'ziga xos xususiyatlari	285
Karimov N. Li Munyolning "Qaddi bukik qahramonimiz" hikoyasida muallif badiiy niyati ifodasi	288
Kuchimova G. About the study of asemantic units in uzbek linguistics	292
Mardiyeva M. Tarjimada frazeologik birliklarning mos kelishi (G'.G'ulom asarlari tarjimalari asosida)	295
Nizomova M. Ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarning diskursiv xususiyatlari	297
Ochilov N. Baxshichilik san'atida zamonaviylik va matn talqini muammosi	301
Rashidova U. Sayfi Saroyi g'azallarida qo'llangan ma'nodosh frazemalarning pragmatik xususiyatlari	304
Tashlanova N. Rangli lug'atlardagi toponomik terminlarning o'xshashliklari va farqlari tahlili (ingliz, o'zbek va rus tillari misolida)	307
Tillabayeva G. "Kiyim/libos" kategoriyasi.....	311
Toshtemirov E. Frazeologiya sohasida antonimik munosabatlarning ifodalanishi	313
Turakulova D. Types of linguacultural concepts: a comprehensive exploration	316
Tursunov A. Nemiszabon adabiyotda Markaziy Osiyoning buyuk siymolari talqini	319
Umrzaqov I. Uilyam Folkner ijodiga "Janub renessansi" ta'siri.....	323
Urinboyeva S. Telefon kommunikatsiyasi va yondosh kommunikatsiyalar qiyosiy tadqiqi	327
O'tanova Sh. Antroposentrik bosqichda implikatura va kommunikativ strategiya.....	331
Xomidova M, Abdullayeva M. Mediamatn va intertekstuallik.....	334
Choriyeva Sh. Birinchi jahon urushi davri adabiyotining adabiy-estetik xususiyatlari.....	337
Ergasheva U. Tabiiy holatni ifodalovchi sifatarning lingvomadaniy tadqiqi.....	341
Yuldasheva M. O'zbek va ingliz tillaridagi avtomobil terminologiyasining struktur tahlili	345



UDK: 321.7:323.004.69 (575.1)

Bexruz TURDIYEV,
Buxoro davlat universiteti, PhD
Email: b.s.turdiyev@buxdu.uz

Falsafa fanlari doktori, prof. B.B. Namozov taqrizi ostida

UCHINCHI RENESSANS JAMIYAT IDEOSFERASINING USTUVOR G'OYASI SIFATIDA

Аннотация

Bugun yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish Yangi O'zbekiston jamiyat ideosferasining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida qo'yilib, milliy g'oya darajasiga ko'tarilmoqda. Mazkur maqolada mamlakatimizda Uchichi Renessans poydevorini qurish va unga bo'lgan zarurat tahlil etilib, unga milliy istiqbolga, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ilm-ma'rifatni chuqur egallash orqali erishish mumkinligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, Renessans, ideosfera, taraqqiyot, ma'rifat, madaniyat, ta'lim, tarbiya, teatr, madaniy diplomatiya, san'at, demokratiya.

ТРЕТЬИЙ РЕНЕССАНС КАК ПРИОРИТЕТНАЯ ИДЕЯ ИДЕОСФЕРЫ ОБЩЕСТВА

Аннотация

Сегодня создание основ нового Возрождения, то есть Третьего Возрождения, является одной из главных целей идеосферы общества Нового Узбекистана. Поэтому вопрос Третьего Возрождения ставится как стратегическая задача и возводится на уровень национальной идеи. В данной статье анализируется необходимость формирования основ Третьего Возрождения в нашей стране, а также изучается, что национальная независимость, развитие и процветание могут быть достигнуты, прежде всего, посредством глубокого приобретения знаний.

Ключевые слова: Общество, ренессанс, идеосфера, развитие, просвещение, культура, образование, воспитание, театр, культурная дипломатия, искусство, демократия.

THE THIRD RENAISSANCE AS A PRIORITY IDEA OF THE IDEOSPHERE OF SOCIETY

Annotation

Today, creating the foundations of the new Renaissance, that is, the Third Renaissance, is one of the main goals of the ideosphere of the society of New Uzbekistan. Therefore, the issue of the Third Renaissance is set as a strategic task and is being raised to the level of a national idea. This article analyzes the need for building the foundations of the Third Renaissance in our country, and it is studied that national independence, development and prosperity can be achieved, first of all, through the deep acquisition of knowledge.

Key words: Society, renaissance, ideosphere, development, enlightenment, culture, education, upbringing, theater, cultural diplomacy, art, democracy.

Kirish. Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohot va yangilanishlarga umumiy qilib "milliy yuksalish", yangilanishlarning pirovard maqsadi va natijasiga ko'ra, "Yangi O'zbekiston", xalqimiz tafakkuri, jamiyat ideosferasidagi o'zgarishning natijalariga esa, "Uchinchi Renessans" deb ta'rif berilmoqda. Bugun yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishni maqsad qilar ekanmiz, dastlab ushbu tushuncha mazmunini, tuzilmasini aniqlab olsak. Falsafa qomusiy lug'atida keltirishicha "renessans" fransuzcha so'z bo'lib, "renaissayce" – "uyg'onish" degan so'zdan kelib chiqib, insoniyat ma'naviy taraqqiyotidagi uyg'onish davri degan ma'noni anglatadi [1]. Keng ma'noda, renessans, avvalo, jamiyat ideosferasida, ilm-fanda, adabiyot va san'atda, ta'lim-tarbiyada, madaniyatda, ijtimoiy fikrlar va baholarda, umuman, qadriyatlar tizimida turg'unlikdan keyin keskin jonlanib, yangi sifat bosqichiga ko'tarilishni, bir tarixiy davrdan yangi davrga o'tishni bildiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda Uchinchi Uyg'onish davri va ma'naviy islohotlarning tub mohiyatini ochib berishga doir qarashlar M. Quronov, N. Jo'rayev, Q. Nazarov, I. Ergashev, N. Shermuhamedova, A. Erkayev, S. Otamurotovlarning izlanishlarida kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida analiz va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tarixdan ma'lumki, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ajdodlarimiz ulkan yutuqlarga erishib, jahon, xalqlar, mintaqalar yutuqlari bilan taqqoslab, jahonning yetakchi madaniyati rivoji, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyoti, ilg'or jamiyat ideosferasini yuksalishi orqali jahon tamadduniga munosib hissa qo'shgan.

Xususan, Sharq Uyg'onish davrining ilk bosqichida bugungi yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning jahon ilm-fani va madaniyati, islom ma'rifati taraqqiyotiga qo'shgan hissasi dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e'tirofiga sazovor bo'ldi. Ayniqsa, IX-XI asrlarda Xorazmda ta'sis etilgan Ma'mun akademiyasi, XV asrda Samarqandda ochilgan Mirzo Ulug'bek ilmiy maktabi, Xurosonda Alisher Navoiy, Lutfiy va Jomiy singari buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy-madaniy muhitning ulug' siymolari boy ilmiy merosi bilan jahonga shuhrat qozondi. Bu davrda davrdagi buyuk mutafakkir va allomalarning matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot, minerologiya kabi fanlar bilan birga, tarix, geografiya, falsafa, madaniyat va san'at, arxitekturaga oid olamshumul ilmiy g'oya va kashfiyotlari jahon ilm-fani yuksalishida muhim rol o'ynadi. Bu ilmiy, tarixiy va badiiy asarlar bugun dunyoning turli hududida, xorij to'plamlari, jamg'armalari, kutubxona va muzeylarida saqlanmoqda.

Bugun Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida ajdodlarimiz tomonidan erishilgan yutuqlar Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorining asosiga aylandi. Zero, yurtimizda Uchinchi Renessans XX asrda islohotchi jadid ajdodlarimiz tomonidan amalga oshirishlari mumkin edi. Biroq, bu davrdagi siyosiy vaziyat bunday bo'lishiga yo'l qo'ymadi. Ular butun ilmiy faoliyatini milliy uyg'onish g'oyasi atrofida birlashib, Turkistonni jaholat va xurofotdan olib chiqish, millatimizni g'aflet botqog'idan xalos etish maqsadida o'zlarining bor imkoniyatlarini safarbar etdilar. Bu yo'lda ular "Najot - ilmu irfonda" deb, jamiyat ideosferasini yuksaltirishga urindilar. "Milliy istiqbol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-

hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisoblaganlar” [2]. Bu davrda Mahmudxo'ja Behbudiy, Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Xo'jayev, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov, Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda kabi yangilik tarafdorlari milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik harakatida o'chmas iz qoldirishgan. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, jamiyat ideosferasi, tafakkuri va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etganlar.

Uchinchi Renessans bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olib, umummilliy harakatga aylanib borayotgan e'g'oyadir. Akmal Saidov ta'biri bilan aytganda, bu g'oya zamirida:

bir tomondan, bugungi va ertangi avlodlarimizning “Uchinchi Renessans” poydevorini qo'yishdek ezgu maqsad-muddaolari;

ikkinchi tomondan, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi Uyg'onish davrlariga asos solgan ulug' ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari;

uchinchi tomondan, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o'qish va izlanishga da'vat mujassamlashgan [3].

Bugun Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda buyuk ma'rifatparvar jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi ulkan ahamiyatga ega. Shu bois, Uchinchi Renessans:

birinchidan, ilm-fanda juda katta yangilanishlarga zamin hozirlab, asrimizning global muammolarini hal etishda ulkan kashfiyotlar asri bo'ladi;

ikkinchidan, ilm-fan ravnaqi mamlakatimizda nodir olim va ziyolilarni yetishib chiqishiga asos bo'ladi. Ularning sa'y-harakat bilan yangi kashfiyotlarga qilib, mamlakatimiz nufuzini jahon hamjamiyatiga e'tirof etilishiga xizmat qiladi;

uchinchidan, yurtimiz zamonaviy Buyuk ipak yo'li chorrahasidagi texnologiya, bilim va mahsulotlarning o'ta muhim markaziga aylanadi.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisod sohalarida yanada chuqurroq integratsiya bo'lishni talab etadi. Ammo o'zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni, ma'naviyatimizni, ya'ni milliy identligimizni saqlab qolishimiz shart. Bu esa ta'lim-tarbiya tizimiga, yosh avlod qanday qadriyatlar tizimiga intilishiga, dunyoqarashida milliylik va umuminsoniylik uyg'un bo'lishiga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini bildiradi [4].

Agar davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning keyingi yillarda hayotimizning ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, ilm va ma'rifatni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mohiyatini tahlil etsak, Uchinchi Renessansning markazi, albatta, Yangi O'zbekiston ekanligiga amin bo'lamiz. Xususan, bu borada yurtimizda “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida” [5]gi qonun qabul qilinishi soha rivojida muhim qadamlardan bo'ldi. Milliy an'analarimizni asrab-avaylash va boyitish maqsadida Maqom, Baxshichilik va Askiya san'ati markazlari tashkil etildi. Shuningdek, “Bahor” raqs ansambli, Davlat filarmoniyasi, Davlat simfonik orkestri kabi 20 dan ortiq muassasalar faoliyati yo'lga qo'yildi. 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 5 ta oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi. “Maqom”, “Baxshichilik”, Hunarmandchilik, “Lazgi” kabi xalqaro festivallar an'anaga aylandi. 24 ta xorijiy mamlakatda, jumladan, qo'shni davlatlarda “O'zbekiston madaniyati kunlari” yuqori saviyada o'tkazildi [6].

Bugun ma'naviyat va madaniy yuksalishimiz sohasida yuqorida keltirilgan yutuqlar bilan cheklanib qolmaymiz. Zero, Uchinchi Renessans asosini ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va san'at tashkil etar ekan, bu sohalar davlatimiz siyosatining diqqat markazida turibdi. Ayniqsa, bu boradagi islohotlar uzviyligini

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023 yil 22 dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ma'naviy sohada 9 ta yo'nalish bo'yicha ilgari surilgan quyidagi muhim tashabbuslarda ko'ramiz:

birinchidan, ma'naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladigan milliy g'oyamizni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqish;

ikkinchidan, madaniy-ma'rifiy sohadagi ishlarda hokimlarning mas'uliyati Yangi O'zbekistan va Uchinchi Renessans qurish yo'lida biz islohotlarimizning asosiy harakatlaniruvchi kuchi bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining bor bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, g'ayrat-shijoatini ishga solish;

uchinchidan, teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqish, unda eng yaxshi pyesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo'llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg'ur nomidagi mukofot ta'sis etish, davlat muassasalarida oyning bir kuni “Teatr kuni” deb belgilanib, xodimlarning teatrlarga borishi yo'lga qo'yish;

beshinchidan, maqom va baxshichilik san'atini ilmiy asosda o'rganish va rivojlantirish kuchaytirish;

oltinchidan, musiqa va raqs san'ati rivoji qo'llab-quvvatlash;

yettinchidan, xalqaro maydonda o'zbek madaniy diplomatiyasini kengaytirish;

sakkizinchidan, kino sohasi rivojlantirish, bu borada “Tirik tarix” seriyasida Vatanimizning shonli o'tmishiga bag'ishlangan filmlar yaratish dasturi ishlab chiqish va bunga xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar hamda investorlar ham jalb etish;

to'qqizinchidan, tasviriy va amaliy san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha dastur qabul qilish [6].

Davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan yuqorida keltirilgan tashabbuslardan ko'zlangan pirovard maqsadga erishishda esa, ta'lim va tarbiyaning roli beqiyosdir. Shu bois, mamlakatimizda ta'lim sohasida yoshlarga zamonaviy bilimlarni berish, ularning intellektual salohiyatini oshirish va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashlariga qaratilgan tub o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Albatta, Birinchi va Ikkinchi Renessans kabi Uchinchi Renessans madaniy-ma'rifiy taraqqiyotga erishish yo'li uzoq davom etadigan jarayon hisoblanib, bu jarayon avvalo, yurtimizdan iqtidorli va iste'dodli zamonaviy yoshlar salohiyatiga, vatanparvar yoshlar kuch-qudratiga tayaniladi. Shu ma'noda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo'llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo'ladi” [7], degan da'vatini jamiyat ideosferasining mazmuniga aylantirsa, hayotbaxsh g'oyaning cheksiz qudratini o'z hayotimizda yorqin ko'ra boshlaymiz.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy sohalarida erishilayotgan yutuqlar yurtimizda Uchinchi Renessans asoslarini yaratishga muhim poydevor bo'lmoqda. Bu asoslarning har biri puxta ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan strategik dasturlar, konsepsiyalar asosida amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, xalqimiz allomalarining jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan Sharq uyg'onish davrini ilmiy, falsafiy o'rganish va baholash hamda orttirilgan ijobiy tajribalardan yangi taraqqiyotimiz yo'lida foydalanishimiz dolzarb ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Falsafa qomusiy lug'ati. –T.: “Sharq”, 2004. –B.346.
2. Янги Ўзбекистон Учинчи Ренессанс оstonасида. –Т: “Zamin nashr”, 2021. –Б.126.

3. Янги Ўзбекистон ва Учинчи Ренессанс: маъномоҳияти, зарурати ва муштараклиги // <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/yangi-ozbekiston>
4. Эркаев А. Янги Ўзбекистон: мўлжал – Учинчи Ренессанс. – Т.: “Маънавият”, 2021. – Б.14.
5. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 yanvardagi “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida”gi O'RQ-668-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5230682>
6. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 22 декабрь куни Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган йиғилиши бўлиб ўтди // “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2023 йил 23 декабрь, № 267 (1056).
7. Ўқитувчи ва мураббilar - Янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир // “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 1 октябрь, № 207 (7709).